

## QO‘QON XONLIGI MA’NAVIY-MA’RIFIY HAYOTIDA AYOLLARNING AMALIY FAOLIYATI

**Mirzaaxmedova Gulshanoy Mansurjon qizi**

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

**G‘oziyeva Namuna Ma’rufjon qizi**

*Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

[Goziyevanamuna5@gmail.com](mailto:Goziyevanamuna5@gmail.com)

+998 99 320-46-94

**Annotatsiya:** *Maqola Qo‘qon xonligi davrida ayollarning ma‘naviy-ma‘rifiy hayotdagi amaliy faoliyatini yoritadi. Mazkur maqola orqali ayollarning adabiy va amaliy san‘atdagi roli, ularning oilaviy, saroy va ijtimoiy muhitdagi ta‘siri, shuningdek, Qo‘qon xonligining madaniy-ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Nodirabegim, Mohlaroyim, Nozikbibi, Hokimoyim, Uvaysiy, ma‘naviy muhit, madaniy meros, otinlar.*

**Аннотация:** *Статья освещает практическую деятельность женщин в духовно-просветительской жизни периода Кокандского ханства. В статье раскрывается роль женщин в литературе и прикладном искусстве, их влияние в семейной, дворцовой и общественной среде, а также их значение в культурно-социальном развитии Кокандского ханства.*

**Ключевые слова:** *Нодирабегим, Мохларойим, Нозикбиви, Хокимойим, Увайсий, духовная среда, культурное наследие, отины.*

**Abstract:** *The article highlights the practical activities of women in the spiritual and educational life during the Kokand Khanate period. It demonstrates the role of women in literature and applied arts, their influence within family, court, and social environments, as well as their significance in the cultural and social development of the Kokand Khanate.*

**Keywords:** *Nodirabegim, Mohlaroyim, Nozikbibi, Hokimoyim, Uvaysiy, spiritual environment, cultural heritage, otins.*

Qo‘qon xonligi davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, balki ma‘naviy-ma‘rifiy hayotning yuksalishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr jamiyatida ilm-fan, adabiyot, san‘at va diniy-ma‘rifiy qadriyatlar rivojida turli ijtimoiy qatlam vakillari faol ishtirok etgan bo‘lib, ular orasida ayollarning o‘rni alohida e‘tiborga loyiqdir. An‘anaviy qarashlarga ko‘ra, ayollar faoliyati ko‘proq oilaviy doira bilan cheklangandek tasavvur qilinsa-da, aslida Qo‘qon xonligi ma‘naviy muhitida ularning amaliy ishtiroki ancha keng va serqirra bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida ayollar faqatgina saroy yoki oilaviy muhit bilan cheklanib qolmagan, balki bevosita adabiy jarayonning faol ishtirokchilari sifatida ham namoyon bo‘lganlar. Xususan, Anbar Otin, Baxri Otin, Dilshod, Zebiniso, Zunnat, Karomatoy, Nodira, Saidabonu, To‘ti-qiz, Uvaysiy, Fazilatbonu, Hafiza otin, Xayriniso kabi shoirlar o‘z ijodi bilan xonlikning adabiy-madaniy muhitini boyitishda katta hissa qo‘shganlar [1:79].

Ularning ijodi orqali ayollarning ichki dunyosi, kechinmalari, ijtimoiy mavqei, muhabbat va sadoqat, sabr va matonat kabi mavzular badiiy ifodasini topgan. Bu shoirlar nafaqat she’riyatda, balki ma’rifatparvarlik faoliyatida ham faol ishtirok etib, ayollar orasida savodxonlikni oshirish, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaganlar. Ayniqsa, otinlar an’anasi doirasida faoliyat yuritgan ijodkor ayollar diniy-ma’rifiy bilimlarni keng yoyishda xizmat qilgan.

Qo‘qon xonligida ayollar san’ati deyarli alohida “bosqich” sifatida emas, balki xonlikning umumiy madaniy-ijtimoiy rivojlanishida, ayniqsa, malikalar, dodxohlar, hunarmand ayollar (kulol, matot, tikuvchi) va xalq tomosha san’ati (raqqosalar, sozandalar) orqali namoyon bo‘lgan; bu san’at, asosan, oilaviy an’analar, saroy madaniyati, xalq amaliy-badiiy ijodiga asoslangan, xonlik madaniyatining ajralmas qismi sifatida shakllangan va rivojlangan, bu yerda ayollar yaratuvchanlik, homiylik va ijodda faol qatnashgan.

Qo‘qon xonligi tarixida ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy hayot rivojiga katta hissa qo‘shgan ayollar orasida Nozikbibi alohida o‘rin tutadi. O‘z davrining ilm sirlarini egallagan, teran zakovatli va yuksak mehr-muhabbat sohibasi bo‘lgan malikalar jamiyatda keng qamrovli xayriya va ma’rifiy ishlarning tashabbuskori sifatida namoyon bo‘lganlar. Ana shunday siymolardan biri Qo‘qon xonligining ilk hukmdori Shohruxbiyning rafiqasi Nozikbibi hisoblanadi.

Nozikbibi nomining o‘zi ham uning nozik didli, latofatli va nazokatli shaxs bo‘lganidan dalolat beradi. U XVIII asrda Hirotda yashagan bo‘lib, Shohruxbiy hayotining so‘nggi yillarida, taxminan 1719-yilda o‘zbek urug‘larini yanada mustahkamlash maqsadida Qirq urug‘i oqsoqolining qizi sifatida unga turmushga beriladi. Ushbu nikoh siyosiy jihatdan muhim bo‘lib, turli urug‘lar o‘rtasidagi birlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Shu davrdan boshlab uning mavqeyi yanada yuksalib, xalq orasida “Nozik oyim” nomi bilan e’zozlana boshlagan.

Shohruxbiy o‘z rafiqasi uchun shaharning janubiy qismida joylashgan Laylakxona mavzesidan yer in’om etib, bu hududda saroy barpo ettiradi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1721-yillar atrofida Shohruxbiy vafot etgach, Nozik oyim ushbu saroyda mustaqil ravishda faoliyat yurita boshlaydi. Aynan shu davrda uning ijtimoiy va ma’rifiy faoliyati yanada kengayadi. U o‘ziga tegishli yer maydonlarini atrofdagi qishloqlarda yashovchi nochor dehqonlarga foydalanish uchun taqsimlab berib, aholining turmush darajasini yaxshilashga katta hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, Nozik oyim nafaqat o‘z o‘g‘li Abdurahmonni tarbiyalash bilan shug‘ullangan, balki qishloq qizlari uchun maktab tashkil etib, ularning savodini oshirishga alohida e’tibor qaratgan. Bu esa o‘sha davr uchun nihoyatda muhim ma’rifiy tashabbus bo‘lib, ayollar ta’limining rivojiga xizmat qilgan. U o‘z yerlaridan tushgan daromad hisobidan yetimxona ochib, miskin va nochorlarni qo‘llab-quvvatlagan hamda maktab xarajatlarini ham shu mablag‘lar orqali ta’minlagan.

Nozik oyim faoliyati natijasida uning saroyi atrofida shakllangan qishloq xalq orasida “Oyim qishloq” nomi bilan mashhur bo‘lib ketadi. Keyinchalik bu maskan Qo‘qon malikalari uchun ma’naviy ahamiyatga ega joyga aylanib, ular bu yerda ma’lum muddat yashashni sharaf deb bilganlar [2:131]. Bu holat Nozik oyimning nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ibratli shaxs bo‘lib qolganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Nozikbibi faqat xayriya va ma’rifiy faoliyat bilan cheklanib qolmay, ijod bilan ham shug‘ullangan. U she’rlar yozgan bo‘lib, ular orasida “Muxammas” janridagi asari mashhurlikka ega [3:122]. Bu esa uning nafaqat siyosiy va ijtimoiy, balki adabiy hayotda ham faol ishtirok etganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qo‘qon xonligi ma’naviy-ma’rifiy hayotida ayollarning faol ishtirokini yoritishda mashhur o‘zbek shoirasi Nodirabegim alohida o‘rin egallaydi. Uning hayoti va ijodi xonlik davrida ayollarning nafaqat ma’naviy, balki siyosiy va madaniy jarayonlardagi o‘rnini ham yaqqol ko‘rsatib beradi. Asl ismi Mohlaroyim bo‘lgan Nodirabegim 1792-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan bo‘lib, o‘z davrining yetuk, ziyoli va iste’dodli ayollaridan biri sifatida tanilgan. U ijodda “Komila” va “Maknuna” taxalluslari bilan ham she’rlar bitgan [4:220].

Nodira Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi bo‘lib, u ming urug‘i o‘zbeklarining nufuzli vakillaridan sanalgan. Uning hayotidagi muhim burilishlardan biri Olimxon tomonidan ukasi Umarxonga Marg‘ilon hokimligi berilishi va 1807-yilda Nodiraga uylantirilishi bilan bog‘liqdir. Ushbu nikoh nafaqat oilaviy, balki siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, Olimxon o‘z tog‘asi va ukasi o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash hamda hokimiyatini yanada barqaror qilishni ko‘zlagan edi.

Nodira aynan shu saroy muhitida o‘zining ijodiy salohiyatini yanada rivojlantiradi. U she’riyat bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi va o‘z davrining mashhur shoirasi Uvaysiy bilan tanishadi. Nodira Uvaysiyni saroyga taklif etib, uni o‘ziga ustoz sifatida e’tirof etadi. Bu esa Qo‘qon saroyida ayollar o‘rtasida ham ilmiy-adabiy muhit shakllanganini ko‘rsatadi.

Qo‘qon adabiy muhitida bir guruh shoiralarga ustozlik qilgan Jahonotin Uvaysiy o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga o‘zining muhim va benazir maqomi bilan yuksak hissa qo‘shdi. Ayollar tasavvufi tushunchasini yangi pog‘onaga olib chiqdi. Badiiy jihatdan pishiq, go‘zal she’riyati nafaqat shoirlar uchun, balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Uning shaxsiyatida jasur, fidoiy va haqgo‘y shoirlarga xos axloqiy ruhiy sifatlar ustunlik qiladi. “Uvaysiy she’riyatining g‘oyaviy badiiy qudrati va ko‘lami bilan qadim yunon shoirasi Sapfo, fransuz shoirasi Margarita Navarli, Sharq she’riyatining malikasi Zebunisolar qatoridagi san’atkor. Uning poeziyasi dunyo badiiy tafakkurida sodir bo‘lgan o‘ziga xos va xarakterli ijodiy hodisalardan edi”, deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov [5:3].

Marg‘ilonda Uvaysiy “Jahon otin” nomi bilan katta hurmat qozongan va keng shuhrat topgan. Xalq orasida xat-savodli, diniy ilmlardan puxta xabardor, ayollar va bolalarga ta’lim beruvchi ziyoli ayollar “otin” yoki “otincha” deb atalgan. Bu atama nafaqat oddiy o‘qituvchini, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya beruvchi murabbiyani ham anglatgan. Shu bois Jahonotinning “otin” maqomi uning jamiyatdagi obro‘-e’tibori va ma’rifatparvarlik faoliyatini yaqqol ifoda etadi.

Biroq uning tanlagan “Uvaysiy” taxallusi bilan “otin” tushunchasi mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Chunki otinlik asosan bolalarni savodli qilish, diniy bilimlarni o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lsa, uvaysiylik tasavvufiy yo‘nalish bo‘lib, unda ruhoniylar kamolot, ichki poklanish va qalbiy tarbiya ustuvor hisoblanadi. Bu jihatdan Jahonotinning o‘ziga “Uvaysiy” taxallusini tanlashi uning faqatgina muallimlik bilan cheklanib qolmaganini, balki chuqur tasavvufiy qarashlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Jahonotinning bunday taxallusni tanlashi ko‘pincha mashhur tasavvufiy siymo Uvais Qaraniy nomi bilan bog‘lanadi. Uvais Qaraniy islom tarixida Allohga va Payg‘ambarimizga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sadoqati va ruhiy pokligi bilan mashhur bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u Payg‘ambarimizni ko‘rish imkoniga ega bo‘lmasa-da, qalban ularga nihoyatda yaqin bo‘lgan. Shu bois tasavvufda “uvaysiylik” tushunchasi bevosita ustozni ko‘rmasdan turib ham ruhiy bog‘lanish va ma‘naviy kamolotga erishishni anglatadi.

Uvaysiylik tarixiga murojaat qilinsa, Hazrati Vaysal Qaranining Alloh Rasuliga bog‘lagan pok muhabbati namoyon bo‘ladi: “Uvais hazratlari chinakam ishqqa mubtalo bo‘lgan edilar. Alloh Rosulining nurli jamolini ko‘rishni orzu qilib Yamandan nur olkasi Madinaga keladi, ammo oxirat mujdasi ko‘rolmay, ortga qaytadi. Alloh Rasuli (unga) muborak hirqalarini hadya qiladilar” [6:3].

Qo‘qon xonligi tarixida ayollarning nafaqat adabiy va ma‘rifiy, balki siyosiy-ijtimoiy hayotdagi faolligini ko‘rsatib beruvchi yorqin siymolardan yana biri Yorqinoy hisoblanadi. U qirg‘izlarning saru urug‘iga mansub bo‘lib, 1802-yilda Qizil-Rabot qishlog‘ida tug‘ilgan. Ayrim manbalarda u Asperdi dodxohning qizi sifatida tilga olinsa-da, “Farg‘ona xonlari tarixi” asari muallifi Mahzunning yozishicha, Yorqinoy aslida Axsilik To‘xtanazar dodxohning qizi bo‘lgan [7:167].

Yorqinoyning bolalik yillari Talos vodiysida o‘tgan bo‘lib, u yoshligidan aql-zakovati, go‘zalligi va xushmuomalaligi bilan ajralib turgan. Aynan shu fazilatlarini tufayli u el orasida hurmat qozongan. Bu davr Qo‘qon xonligida taxt uchun kurashlar kuchaygan murakkab siyosiy vaziyat bilan xarakterlanadi. Shunday sharoitda bo‘lajak xon SHERALIXON Talos hududiga kelib qoladi va Yorqinoy bilan turmush quradi.

Sheralixon taxtga o‘tirgach, Yorqinoy farzandlari bilan Qo‘qonga ko‘chib keladi. Manbalarga ko‘ra, u o‘rda hovlisida maxsus chodir tikdirib, shu yerda yashashni afzal ko‘rgan. Saroy ahli orasida u “Hokimoyim” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu nom bejiz berilmagan, albatta — Yorqinoy o‘zining dono maslahatchiligi, uzoqni ko‘ra bilishi va ijtimoiy faoliyati bilan ajralib turgan.

Hokimoyim ko‘plab savobli ishlarning tashabbuskori bo‘lib, xonlikdagi ijtimoiy va ma‘naviy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. U o‘z faoliyati orqali ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, uning davlat ishlaridagi bilvosita ishtiroki va farzandlari tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etgan. U vafotidan oldin o‘zining amaliy va ma‘naviy merosini o‘g‘li Xudoyorxonga vasiyat qilib qoldirgan.

1868-yilda, muborak Ramazon kunlarida Yorqinoy vafot etadi. U Qo‘qon malikalari dafn etilgan kichik dahmaga qo‘yilgan [8:220]. Uning vafoti nafaqat saroy ahli, balki butun jamiyat uchun katta yo‘qotish bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, janozadan so‘ng xon chuqur iztirobga tushib, o‘n kun davomida uzlatda ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan va shundan keyingina davlat ishlariga qaytgan [9:180]. Bu holat Yorqinoyning saroy va jamiyat hayotidagi naqadar muhim o‘rin tutganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida ayollar muhim va ko‘p qirrali o‘rin egallagan. Ular nafaqat oilaviy muhit doirasida, balki jamiyatning madaniy, adabiy va ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etganlar. Xususan, Nodirabegim, Yorqinoy,

Uvaysiy kabi siymolar hamda boshqa ko‘plab shoirlar, otinlar va hunarmand ayollar o‘z faoliyati orqali xonlik ma’naviy hayotining rivojiga katta hissa qo‘shganlar.

Ayollar tomonidan yaratilgan adabiy meros, amaliy san’at namunalari, tarbiyaviy va ma’rifiy faoliyat natijalari jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ular milliy qadriyatlar, urf-odatlar va diniy an’analarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazishda asosiy tayanch kuch sifatida namoyon bo‘lganlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuzikulov I. Qo‘qon xonligi tarixi. – Namangan: Namangan nashriyoti, 2014.
2. Dadaboyev Y. Xo‘qondi latif mahallalari va ko‘chalarining nomlanishi tarixi.- Farg‘ona, 2007.
3. Alixo‘jayev M. Qo‘qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarningtutgan o‘rni. - T., 2012.
4. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti.- T.: “Fan”, 1961.
5. *Ҳаққулов И. Увайсий шеърляти. –Тошкент: 1982.*
6. *Мустафо Нажотий Бурсали. Ҳазрати Увайс Қараний. -Тошкент. 2007*
7. Зиябиддин Мақсум. Фарғона хонларининг тарихи. – Бишкек, 2007.
8. Dadaboyev Y. Xudayorxon o‘rdasi.- Namangan, 2016
9. Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi.- T.: “Fan va texnologiya”, 2016.